

Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasini (qo'shilmasini) tashkil etish haqida

SHARTNOMA № 5

“5” Lubop 2022 yil

Toshkent shahri

Toshkent shahar FVB boshlig'i R.X.Xaydarov kelgusida “YOXTTEB” bilan nomlangan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Transport qismi direktori SH.SH.Gaynazarov kelgusida “Xo'jalik idorasi” bilan nomlangan, quyidagilar bo'yicha shartnoma tuzdik.

I. Shartnoma predmeti.

1.1. “YOXTTEB”, O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi tarkibiy tizimi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi “Xo'jalik idorasi” jabhalarida 2022 yilda Yong'in xavfsizligini ta'minlash ishlarini olib boradi.

1.2. Qo'riqlanayotgan jabhaning umumiy Yong'in xavfsizligi holatiga mas'ullik “Xo'jalik idorasiga” yuklatiladi.

1.3. “Xo'jalik idorasi” jabhalarida “YOXTTEB” 6 ta xarbiy xizmatchidan iborat bo'lib, ular Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkillashtirish xizmatini olib boradi.

1.4. “Xo'jalik idorasi” o'z jabhalardagi Yong'in xavfsizligi holatini yaxshilash bo'yicha, “YOXTTEB” ko'rsatmalarida belgilangan tadbirlarni bajarishga majbur.

1.5. “Xo'jalik idorasi” “YOXTTEB” bilan birgalikda, jabhalarda yong'indan xavfli va portlash xavfi bo'lgan hududlarda “Yong'in xavfsizligi choralari haqida” yo'riqnoma ishlab chiqishi va unga amal qilishi kerak.

1.6. “YOXTTEB” tomonidan Yong'in xavfsizligi holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni bajarish “Xo'jalik idorasi”ga majburiy hisoblanadi.

1.7. YOXTTEB va jabhalarning o'zaro munosabatlari qismiga muvofiq, tomonlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan buyruq, buyruqnoma, nizom, reja va yo'riqnomalarga amal qiladilar.

II. Shartnoma mablag'i va hisoblash tartibi.

2.1 2022 yil 1 yanvardan 31 martga qadar 3 (uch) oylik harajatlar qiymati **177 686 370** (Bir yuz yetmish yetti million olti yuz sakson olti ming uch yuz yetmish) so'mni, shartnomaning bir oylik qiymati **59 228 790** (Ellik to'qqiz million ikki yuz yigirma sakkiz ming yetti yuz to'qson) so'mni tashkil etadi. (QQS siz).

Harajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati Farmon, Farmoyishi va Qarorlari, ya'ni Respublika hududida belgilangan eng kam oylik ish xaqqi miqdoridan kelib chiqib, hamda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vaziri, Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida tuzilgan.

2.2. “Xo'jalik idorasi” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgust kunidagi №241 sonli qaroriga asosan Yong'in xavfsizligi xizmati uchun 100 foiz oldindan to'lovni har oyning 10 sanasiga qadar to'lab beradi.

2.3. Yong'in xavfsizligi xizmati shaxsiy tarkibini moliyaviy ta'minotida o'zgarishlar bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya etgan holda, “YOXTTEB” shaxsiy tarkibini ta'minlash qo'shimcha smetasini taqdim etish yo'li bilan qo'shimcha shartnoma mablag'ida o'zgarish kiritiladi.

2.4. Yong'in xavfsizligi xizmati uchun to'lov, “Xo'jalik idorasi” tomonidan har oyning 15 kuniga qadar to'lov qog'ozlarini Davlat banklariga topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. “Xo'jalik idorasi” to'lovlarni o'z muddatida amalga oshirmasa, bunday holda “YOXTTEB” to'lov talabnomalarni taqdim etib, aksepsiz tartibda mablag'larni undirib olishni amalga oshiradi.

2.5. Jabhalarni Yong'in xavfsizligi xizmati uchun o'z vaqtida xaq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun **0,4%** miqdorida ustiga qo'shimcha xaq olinadi.

III. Yong'in xavfsizligi va qutqaruv xizmatining majburiyatlari.

3.1. Qo'riqlanayotgan jabhalarda Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkillashtirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish. Qo'riqlanayotgan jabhada Yong'in aniqlangan holda, zudlik bilan yong'inni o'chirishni tashkil qilish, qutqaruv ishlarini olib borish va yong'inni o'chirishda barcha choralarni ko'rish.

3.2. "Xo'jalik idorasi" tomonidan Yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalariga rioya qilishini, birlamchi o't o'chirish vositalarini, yong'inga qarshi suv bilan ta'minlash manbalarini, Yong'in haqida xabar beruvchi avtomatik moslama va signalizatsiyalar holatlarini muntazam tekshirish va kamchiliklar aniqlangan holda zudlik bilan "Xo'jalik idorasi" ga chora qabul qilish uchun axborot berish.

3.3. "Xo'jalik idorasi" bilan birgalikda yong'indan saqlash texnik vositalarni joriy etish tadbirlarni belgilash.

3.4. "Xo'jalik idorasi" bino va inshootlarida qurilish, ta'mirlash va ochiq olov ishlari olib borilayotganda, Yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalariga amal qilishini nazorat qilish.

3.5. "Xo'jalik idorasi" xodimlari orasida, yong'inni oldini olish va o'chirish bo'yicha, Yong'in xavfsizligi yuriqnomasini va tushuntirish ishlarini olib borish.

3.6. "Xo'jalik idorasi" ning Yong'in texnik xay'atining ishida ishtirok etish.

3.7. Qo'riqlanayotgan hudud, bino va inshootlarining Yong'in xavfsizligi holati qoniqarsiz deb topilsa, hamda "Xo'jalik idorasi" ishchilari tomonidan Yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalari buzilsa, "Xo'jalik idorasi" rahbariyatiga chora ko'rish uchun axborot berish.

3.8. "Xo'jalik idorasi" jabhalarida ko'ngilli o't o'chirish drujinalari tuzilgan bo'lsa, "Xo'jalik idorasi" rahbari tomonidan tasdiqlangan dars jadvali asosida, ko'ngilli o't o'chirish drujinalari bilan mashg'ulotlar o'tkazish.

IV. "Xo'jalik idorasi" majburiyatlari.

4.1. Ikki tomonlama aktda ko'zda tutilgan, jabhaning Yong'in xavfsizligi holatini yaxshilash borasida mablag' talab etadigan tadbirlarni amalga oshirish.

4.2. Jabhalarning Yong'in xavfsizligi holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazilishi bo'yicha, "YOXTTEB" ning yozma ko'rsatmalarini, belgilangan muddatda bajarish.

4.3. Jabhalarni yong'indan saqlash texnik vositalari bilan ta'minlash va ularni ta'mirlashni o'z hisobidan bajarish.

4.4. Yong'in haqida xabar beruvchi va o't o'chirish avtomatik moslama va signalizatsiyalarga xizmat ko'rsatishni amalga oshirish.

4.5. Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkillashtirish xizmati faoliyatini tashkil qilish uchun zarur miqdorda, o'z hisobidan o't o'chirish texnikasi, avtoulavlar, aloqa vositalar va qutqaruv anjomlari bilan ta'minlash. O't o'chirish texnikasi avtoulavlarni, aloqa vositalarini ta'mirlashni o'z hisobidan amalga oshirish.

4.6. O't o'chirish texnikasini, o't o'chirish vositalarni va qutqaruv anjomlarni boshqa maqsadda foydalanishga yo'l qo'ymaslik.

4.7. "YOXTTEB" ga qo'riqlanayotgan jabha bino va inshootlarida qurilish, ta'mirlash ishlari, hamda yong'indan xavfli texnologik jarayonlaridagi o'zgarishlar, ochiq olov ishlarini olib borilishi xaqida xabar berish.

4.8. Jabhalarni Yong'in xavfsizligi targ'ibot va tashviqot materiallari bilan ta'minlash.

4.9. YOXTTEB xodimlarining xizmat faoliyatiga taalluqli bo'lgan, "Xo'jalik idorasi" jabhalaridagi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish, shaxsiy tarkib bilan mehnatni muxofaza qilish borasida kerakli tadbirlarni o'tkazish.

4.10. O'zbekiston Respublikasi "YOXTTEB"ga kommunal xizmatlari ko'rsatish (suv ta'minoti, isitish, yoritish, gaz ta'minoti, xona va binolarni ta'mirlash va tozalik ishlari), shuningdek o't o'chirish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun xizmat va yordamchi xonalar bilan ta'minlash.

4.11. “YOXTTEB” ni O‘zbekiston Respublikasi FVV ning me‘yor hujjatlarida ko‘zda tutilgan, me‘yorlardan kam bo‘lmagan miqdorda mebel’ jixozlari, kerakli asbob uskunalar bilan ta‘minlash.

4.12. “YOXTTEB” xizmati xodimlariga “Xo‘jalik idorasi” jabhalarida yong‘inni oldini olish borasidagi masalalarni hal etish, shunga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqib, taqdim etish.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1 «Buyurtmachi» ishlar, xizmatlar haqqini o‘z vaqtida to‘lamaganda, O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustda qabul qilingan «Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonunining 24-moddasida ko‘rsatilgan ya‘ni, taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda javobgar bo‘ladi.

VI. Fors – major

(engib bo‘lmaydigan kuch holatlari)

6.1. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta‘sir etsa, tomonlar bunday javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal kilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga munosib ravishda uzaytiriladi.

Agarda yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning okibatlarini bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda tomonlar ishlarni, xizmatlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

6.2. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidirlar.

VII. Nizolarni hal qilish tartibi.

7.1. Shartnoma punktlarni bajarishda va bekor qilishda, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirishda paydo bo‘ladigan nizolar masalalarini tomonlararo hal etolmasa, ular qonun oldida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

VIII. Qo‘shimcha shartlar.

8.1. YOXTTEB sonidagi o‘zgarishlar, tomonlarning xay‘at aktining takliflari va O‘zbekiston Respublikasi FVV tomonidan tasdiqlangan me‘yorlar asosida amalga oshiriladi.

8.2. “Xo‘jalik idorasi” tomonidan “YOXTTEB” uchun olingan o‘t o‘chirish texnikasi, avtoulavlar, o‘t o‘chirish qurollari, madaniy ma‘rifiy anjomlar va jixozlar, “Xo‘jalik idorasi” ning mulki xisoblanib, uning balansida turadi.

“YOXTTEB” “Xo‘jalik idorasi” oldida o‘t o‘chirish texnikasi va o‘t o‘chirish anjomlaridan qonun bilan o‘rnatilgan tartibda foydalanishga va ularni saqlashga javobgar hisoblanadi.

8.3. “YOXTTEB” “Xo‘jalik idorasi” dan bepul foydalanish uchun olingan moddiy boyliklar uchun, “Xo‘jalik idorasi” oldida moddiy javobgar xisoblanadi.

8.4. “Xo‘jalik idorasi” boshliqlari “YOXTTEB” shaxsiy tarkibi tomonidan xizmatni o‘tashlarini tekshirishlari, tizim boshlig‘iga xizmatga taalluqli ko‘rsatmalar berishga va aniqlashga, kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Toshkent shahar FVB rahbariyatiga murojaat etishga xaqlidir.

8.5. “YOXTTEB” shaxsiy tarkibi xizmatda foydalanishi uchun «Xo‘jalik idorasi» mablag‘i hisobiga olingan harbiy kiyimlar, xizmat jixozlari hamda tabel’ xisobidagi boshqa mulk, “YOXTTEB” ning xususiy mulki xisoblanadi.

8.6. Yil davomida smetaga nisbatan tejalgan mablag‘larni o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi smetadan tashqari boshqa zaruriy maqsadlarga

(engil tezkor, avtobus, maxsus Yong'in o'chirish avtoulavlarini harid qilish va ularni ta'mirlash, ehtiyot qismlar, Yong'in o'chirish asbob-anjomlari, komp'yuter jixozlari, maishiy texnikalar, banner va plakatlar, mebel, sport anjomlarini harid qilish, bino qurilishi va ta'mirlanishi) ham sarflash imkoniyati beriladi.

8.7. Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkillashtirish xizmati xodimlarining xizmat xaqi o'z vaqtida to'lanmasa, kelgusida jabhada Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkillashtirish xizmatini davom ettirish maqsadga muvofiqligi aniq hal etiladi. "YOXTTEB" shartnomani bir tomonlama bekor qilib, "Xo'jalik idorasi" qarzlarni to'lagunga qadar (xizmat tashkil qilishda majburiy tanaffuslarni ham qo'shib), xizmatni to'xtatib qo'yishga xaqqi bor.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma 2022 yil « 05 » 01 dan « 31 » 12.2022 gacha amal qiladi.

9.2. Tomonlar bilan kelishilgan holda, boshqa tomon shartnomani bekor qilnadigan muddatdan 2 oy oldin xabar berib yoki Yong'in xavfsizligi xizmati uchun haq to'lash shartnomasi bajarilmasa, shartnoma YOXTTEB tomonidan bekor qilinishi mumkin.

9.3 Ushbu shartnoma bo'yicha baxs tug'diradigan savollar, amaldagi belgilangan qonunchilik bo'yicha hal etiladi.

"YOXTTEB"- Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi.

Toshkent sh. Sh.Rashidov ko'chasi 17 uy. ATB "TURONBANK" x/r 2020 3000 3004 4800 5002, MFO-00446, INN-201 849 835, OKONX-84240

"Xo'jalik idorasi"- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Transport qismi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
TRANSPORT QISMI
АДМИНИСТРАЦИЯ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТРАНСПОРТНАЯ ЧАСТЬ
Toshkent sh., Chilonar tumani, Olmazor 4. Tel: (71) 239 55 05
H/r 1000 1086 0262 9470 1120 9015 001
STIR 200 950 364 OKED 52210
Moliya vazirligi G'aznachiligi
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
MEG 00014 STIR 201 122 919
Administratsiyasi Transport qismi

direktori

SH.SH.Gaynazarov

Toshkent shahar FVB boshlig'i
general-mayor

R.X.Xaydarov



ЮРИСТ
Юртов М.В.





"TASDIQLAYMAN"

Tashkent shahar FVB boshlig'i

general mayor

R.X. Xaydarov

2022 yil

"KELISHILGAN"

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Administratsiyasi Transport qismi

direktori

Sh. Sh. Gaynazarov

2022 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Transport qismi ob'yektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limining 2022 yil xarajatlar smetasi

Yong'in xavfsizligi xodimining lavozimlar nomi	Xodimlar soni	2022 yil 1 yanvardan 31 martgacha			Jami xarajalar
		Bir nafar yong'in xavfsizligi xodimining saqlash xarajalari (so'mda)	Jami yong'in xavfsizligi xodimlarining bir oylik saqlash xarajalari (so'mda)	5	
I	2	3	4	5	
Bo'lim boshlig'i	1	12 387 903	37 163 709	111 491 127	
Inspektor	2				
Mutaxassis (yong'inni oldini olish bo'yicha)	3	7 355 027	22 065 081	66 195 243	
Жами:	6		59 228 790	177 686 370	

FVB MIB boshlig'i o'rinbosari

O.X. Mamatqulov